

**Sharq va G'arb falsafasining insoniyat tafakkuri taraqqiyotida tutgan o'rni****Quvondiqova Sohiba Orif qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining

Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)

ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafaning mohiyati va asosiy vazifalari keng yoritiladi. Falsafa inson tafakkurining chuqur tahliliga asoslangan bo'lib, borliq, bilim, haqiqat, axloq va jamiyat kabi fundamental tushunchalarni o'rganadi. Maqolada Sharq va G'arb falsafasining o'ziga xos jihatlari ham tahlil qilinib, ularning insoniyat tafakkuriga qo'shgan hissasi ko'rib chiqiladi. G'arb falsafasi analitik tafakkur va ilmiy metodlarga urg'u berishi, Sharq falsafasi esa ma'naviyat va ichki uyg'unlikni asosiy qadriyat sifatida ilgari surishi bilan ajralib turadi. Ushbu maqola falsafaning inson hayotidagi ahamiyatini tushunishga qaratilgan bo'lib, tarixiy misollar va falsafiy oqimlar orqali mavzuni chuqurroq ochib beradi.

Kalit so'zlar: Dunyoni anglash, falsafa, dunyoqarash, olam-odam, bilim, haqiqat, axloq, tafakkur va tushuncha, fan, umuminsoniy ma'naviy qadriyatlar, rivojlanish, borliq, ma'naviyat.

Абстракт: В данной статье раскрыты сущность и основные задачи философии. Философия основана на глубоком анализе человеческого мышления и изучает такие фундаментальные понятия, как существование, знание, истина, мораль и общество. В статье также анализируются специфические аспекты восточной и западной философии и рассматривается их вклад в человеческое мышление. Западная философия отличается упором на аналитическое мышление и



научные методы, тогда как восточная философия подчеркивает духовность и внутреннюю гармонию как главную ценность. Данная статья направлена на понимание важности философии в жизни человека и подробно раскрывает тему через исторические примеры и философские течения.

Ключевые слова: Миропознание, философия, мировоззрение, мир-человек, познание, истина, этика, мышление и понимание, наука, общечеловеческие духовные ценности, развитие, существование, духовность.

Abstract: This article covers the essence and main tasks of philosophy. Philosophy is based on an in-depth analysis of human thinking and studies such fundamental concepts as existence, knowledge, truth, morality and society. The article also analyzes the specific aspects of Eastern and Western philosophy and considers their contribution to human thinking. Western philosophy is distinguished by its emphasis on analytical thinking and scientific methods, while Eastern philosophy emphasizes spirituality and inner harmony as the main value. This article is aimed at understanding the importance of philosophy in human life and reveals the topic in depth through historical examples and philosophical currents.

Key words: Understanding the world, philosophy, worldview, world-man, knowledge, truth, ethics, thinking and understanding, science, universal spiritual values, development, existence, spirituality.

KIRISH. Falsafa inson tafakkurining eng chuqur va keng qamrovli sohasi bo'lib, u mavjudlik, bilim, haqiqat, axloq va inson hayotining mazmunini tushunishga qaratilgan. “Falsafa” atamasi «filosofiya» soʻzining Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Sharqning atoqli faylasufi, mashhur mutafakkir Abu Nasr Farobiy filosofiya soʻzini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni



sevish» degan mazmun bilan birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni xaqidagi qarash va xikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan. Falsafa – butun olam (borliq), ya'ni tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkurining mohiyati haqidagi eng umumiy bilimlarni o'zida ifodalab, insonning borliqqa bo'lgan munosabatining metodologik asoslarini belgilab beradi, olam rivojlanishining eng umumiy qonunlari va muammolarini o'rganadi hamda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi. Tarixan falsafa ikki asosiy tamoyil – G'arb va Sharq falsafasi doirasida shakllangan va rivojlangan. G'arb falsafasi analitik tafakkur, mantiq va ilmiy metodlarga asoslangan bo'lsa, Sharq falsafasi insonning ichki dunyosi, ma'naviyat va hayot bilan uyg'unlikni ta'kidlaydi.

Falsafa nafaqat nazariy fan, balki inson va jamiyat hayotini tartibga soluvchi, dunyoqarashni shakllantiruvchi kuchdir. Uning asosiy maqsadi – insoniyat oldida turgan fundamental savollarga javob izlashdir:

Insonning bu dunyodagi o'rni va maqsadi nima? Haqiqatni qanday anglash mumkin? Axloqiy qadriyatlar qanday shakllanadi? Sharq falsafasi insoniy fazilatlar, axloqiy kamolot va ichki uyg'unlikka urg'u bersa, G'arb falsafasi tanqidiy tafakkur, ilmiy bilish va mantiqiy izchillikni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Har ikkisi insoniyat tafakkurining muhim qirralarini ochib beradi va bugungi jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Ushbu maqolada falsafaning mohiyati, uning asosiy vazifalari va Sharq hamda G'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil tahlil yuritamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Planetaning barcha xalqlari va millatlari turmushiga oid bo'lgan madaniyat va ma'naviyat bir butunlik tomon intilmoqda. Ayni vaqtda ularning har birida o'z “men”ligi tobora chuqur mazmunga ega bo'lmoqda. Bunday murakkab jarayonda jahon xalqlarining taqdirleri hal bo'lmoqda. Shuning uchun ham ushbu jarayon jiddiy falsafiy tahlilni talab qiladi. Bunday tahlilning debochasi Sharq va G'arb falsafasi, ular o'rtasidagi uyg'unlik hamda ularning har birining o'ziga xosligi, ularning har birining kichik yoki katta siyosatga ta'siri, kishilik taqdirini oldindan ko'ra bilishga bo'lgan ko'magi hisoblanadi [1]. Falsafiy tafakkurning rivojlanishi ko'p asrlik adabiy manbalar,



faylasuflarning asarlari va zamonaviy tadqiqotlar bilan bog'liq. Ushbu maqolada foydalanilgan adabiyotlar falsafaning mohiyati, Sharq va G'arb falsafasi, ularning o'zaro ta'siri va rivojlanish yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi.

Platon – "Davlat" (Ushbu asar ideal jamiyat tuzilishini yoritib, falsafiy boshqaruv konsepsiyasini ilgari suradi. Platon haqiqatni faqat tafakkur orqali anglash mumkinligini ta'kidlaydi). Aristotel – "Metafizika" (Borliqning tub mohiyati, sababiyat va bilim manbalari haqida fikr yuritilgan bu asar falsafaning fundamental asosi sanaladi). Immanuel Kant – "Sof aql tanqidi" (Bilish jarayoni, haqiqatning subyektiv va obyektiv qirralari haqida falsafiy nazariyalar ilgari surilgan). Konfutsiy – "Lun Yu" ("Suhbat va mulohazalar"). Axloqiy qadriyatlar, jamiyatni boshqarish prinsiplari va insoniylik tushunchasi haqida batafsil fikr yuritilgan). Lao-Tszi – "Dao De Jing" (Tabiat va inson uyg'unligi, hayotning tabiiy oqimi va faol harakatsizlik (U-vey) g'oyalari bayon etilgan). Al-Farobiy – "Fozil odamlar shahri" (Ideal jamiyat, ma'rifatli boshqaruv va insonning kamoloti haqida fikr yuritilgan). Ibn Sino – "Kitob ash-Shifo" (Metafizika, mantiq va tabiatshunoslik sohalarida chuqur tahlillar berilgan). Rene Dekart – "Tafakkur metodi haqida mulohazalar" (Ratsionalizm asoslari, bilim va shubhaning ahamiyati tahlil qilingan). Friedrich Nietzsche – "Zardusht shunday dedi" (Axloqiy qadriyatlarning qayta ko'rib chiqilishi, irodaviy tafakkur va shaxsiy mukammallik tushunchalari ilgari surilgan). Karl Marks va Fridrix Engels – "Kommunistik manifest" (Jamiyat rivoji, sinfiy kurash va iqtisodiy asoslarning falsafiy tahlili yoritilgan). Jeyms Rachels – "Axloqiy falsafa" (Zamonaviy axloqiy muammolar va ularning falsafiy jihatlarini tahlil qilingan). Yurgen Habermas – "Kommunikativ harakat nazariyasi" (Jamiyatdagi muloqot va demokratiyaning falsafiy asoslari yoritilgan). Slavoj Jizek – "Ideologiya haqida" (Zamonaviy falsafada mafkura va uning jamiyatga ta'siri haqida fikr yuritilgan).

MUHOKAMA. G'arb falsafasi atamasi bilan G'arb olamiga xos falsafiy oqimlar va qarashlar majmuasi nomlanadi. G'arb falsafasi Sharq falsafasi va ba'zi aborigen xalqlar falsafalaridan ajratilib o'rganiladi. G'arb falsafasi Yunon falsafasidan boshlangan, deb



qabul qilingan. Antik davrlarda falsafa soʻzi ostida umuman fan tushunilgan boʻlsa-da, hozirgi kunda Gʻarb falsafasi faqat olamning subyektivistik manzarasini yaratish bilan mashgʻuldir. Zamonaviy Gʻarb falsafasi tahliliy falsafa va kontinental falsafa sohalaridan iborat [3]. Gʻarb falsafasi aniq davrlarga boʻlinib, har bir bosqichda muhim oʻzgarishlar yuz bergan. Quyida uning asosiy bosqichlari va asosiy faylasuflari haqida batafsil maʼlumot berib oʻtamiz:

1. Antik davr (Miloddan avvalgi VI asr – Milodiy V asr)

Bu davr falsafaning asosiy tushunchalari shakllangan bosqich boʻlib, Gretsiyada paydo boʻlgan. Fales (M.A. 624–546) – "hamma narsaning asosi suv" deb hisoblagan va tabiiy hodisalarni ilohiy kuchlarga emas, balki materiyaga bogʻlagan birinchi faylasuf. Sokrat (M.A. 469–399) – axloqiy falsafa asoschisi. U bilimsizlikni tan olish donolikning boshlanishi deb hisoblagan. Platon (M.A. 427–347) – idealizm asoschisi. Uning fikricha, haqiqat moddiy olamdan tashqarida, ideyalar olamida mavjud. Aristotel (M.A. 384–322) – mantiq va ilmiy tafakkur asoschisi. U materiya va forma tushunchalarini ishlab chiqib, falsafani tizimlashtirgan.

2. Oʻrta asr falsafasi (V–XV asrlar)

Bu davrda Gʻarb falsafasi diniy tafakkur bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, asosan xristianlik mafkurasi hukmronlik qilgan. Akvinali Foma (1225–1274) – falsafani xristian eʼtiqodi bilan uygʻunlashtirib, Aristotelning taʼlimotlarini cherkov bilan bogʻlagan. Avgustin (354–430) – "Tanho haqiqat Xudo" degan gʻoyani ilgari surgan va insonning ichki dunyosiga eʼtibor qaratgan.

3. Uygʻonish va Yangi davr falsafasi (XV–XVIII asrlar)

Bu davrda ilm-fan rivojlandi, ratsional tafakkur va eksperimentlar oldingi oʻringa chiqdi. Rene Dekart (1596–1650) – "Men oʻylayapman, demak, mavjudman" degan mashhur fikr egasi. U ratsionalizm asoschisi hisoblanadi. Fransis Bekon (1561–1626) – tajribaga asoslangan bilimni (empirizm) rivojlantirgan va ilmiy uslubni ishlab chiqqan. Jon



Lokk (1632–1704) – tajriba bilimning yagona manbai ekanligini ta'kidlagan va liberal siyosiy falsafaga asos solgan. Immanuil Kant (1724–1804) – "Kritik falsafa" asoschisi. Uning fikricha, bilim aql va tajriba natijasida shakllanadi.

4. Zamonaviy G'arb falsafasi (XIX–XXI asrlar)

Bu davrda falsafa ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy muammolar bilan chambarchas bog'liq bo'ldi. Georg Hegel (1770–1831) – dialektik falsafa asoschisi. Uning fikricha, tarix doimiy ravishda qarama-qarshiliklar orqali rivojlanadi. Karl Marks (1818–1883) – dialektik materializm va kommunistik nazariya asoschisi. U jamiyat sinfiy kurash orqali rivojlanishini ta'kidlagan. Fridrix Nitsshe (1844–1900) – "Xudo o'ldi" degan mashhur fikr muallifi. U odatdagi axloqiy qadriyatlarni inkor qilib, "ustod odam" g'oyasini ilgari surgan. Jan-Pol Sartr (1905–1980) – ekzistensializm asoschilaridan biri. U inson erkinligi va mas'uliyatini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Mišel Fuko (1926–1984) – postmodernist faylasuf bo'lib, bilim va hokimiyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan.

Sharq falsafasi: Ma'naviyat va Uyg'unlik Tafakkuri

Sharq falsafasi atamasi bilan Osiyo qit'asida paydo bo'lgan falsafiy oqimlar, qarashlar majmuasi nomlanadi. Sharq falsafasiga hind, xitoy, fors, yapon, koreys hamda O'rta Osiyo falsafasi kiradi. Bu ro'yxatga ba'zan Bobil va Arab falsafasi ham kiritiladi, biroq bular g'arb falsafasiga ham taalluqlidirlar [2]. Sharq falsafasi G'arb falsafasidan farqli o'laroq, insonning ichki dunyosi, ma'naviyat, axloq va jamiyat bilan uyg'unlik masalalariga katta e'tibor qaratgan. U mustaqil tafakkur maktablari va diniy an'analar asosida shakllangan.

Hind falsafasi

Hindiston dunyodagi eng qadimiy falsafiy an'analar beshigi hisoblanadi. Unda diniy va falsafiy tafakkur bir-biri bilan uyg'unlashgan. Vedalar va Upanishadlar (M.A. 1500–500) – Hind falsafasining boshlang'ich manbalari bo'lib, unda borliq, ruh va karma tushunchalari bayon etilgan. Budda falsafasi (M.A. 563–483) – Siddhartha Gautama



(Budda) tomonidan shakllantirilgan. Uning asosiy g‘oyalari: Hayot azob-uqubatga to‘la. Azoblarning sababi istak va nafsdir. Azoblardan qutulish yo‘li nirvanaga erishishdir.

Yoga va Vedanta falsafasi – Meditatsiya va ichki uyg‘unlik orqali inson o‘z “men”ini anglashga harakat qilishi lozim.

Xitoy falsafasi

Xitoy falsafasi axloq, jamiyat va tabiat uyg‘unligini o‘rganadi. U ikki asosiy maktab – Konfutsiychilik va Taoizmga bo‘linadi.

Konfutsiy (M.A. 551–479) – Uning ta’limoti tartib-intizom, axloqiy fazilatlar va insoniylik g‘oyalariga asoslangan. "Jen" (insoniylik) – boshqalarga hurmat va mehr ko‘rsatish. "Li" (marosim va tartib) – jamiyatdagi tartib va qadriyatlarga amal qilish. "Syao" (ota-onaga hurmat) – oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash. Lao-Tszi (M.A. VI asr) – Taoizm asoschisi. Uning asosiy asari "Dao De Jing" bo‘lib, unda tabiat va inson uyg‘unligi tushuntiriladi. Tao (yo‘l) va U-vey (faol harakatsizlik) g‘oyalari asosiy o‘rinda turadi.

Islom falsafasi

Islom falsafasi yunon tafakkuri bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, bilish, axloq va ilohiyat masalalarini chuqur tahlil qilgan. Al-Farobiy (872–950) – U "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyingi eng buyuk faylasuf) deb tan olingan. Uning fikricha, insonning eng oliy maqsadi baxtga erishishdir. Ibn Sino (980–1037) – Tibbiyot, falsafa va metafizika bo‘yicha yirik olim. U Aristotelning g‘oyalarini rivojlantirib, ruh va materiya masalasini o‘rganadi. Ibn Rushd (1126–1198) – G‘arb falsafasiga katta ta’sir ko‘rsatgan mutafakkir. U Aristotel falsafasini himoya qilib, din va falsafa o‘zaro mos ekanligini asoslagan. Jaloliddin Rumiy (1207–1273) – Tasavvuf falsafasining yirik vakili. U ilohiy muhabbat va ruhiy kamolot g‘oyalarini ilgari surgan.



Sharq falsafasi insonning ruhiy va axloqiy kamolotini birinchi o'ringa qo'yadi. U jamiyat va tabiat bilan uyg'unlikni ta'kidlab, falsafiy tafakkurni hayotga tatbiq qilishni o'rgatadi. G'arb falsafasi mantiq va ilmga asoslangan bo'lsa, Sharq falsafasi ichki dunyo, intuitsiya va tajriba orqali haqiqatni anglashga intilasa G'arb falsafasi mantiq, ilmiy fikrlash va tahliliy yondashuvga asoslanib, inson tafakkurining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Har bir davrda u yangi yo'nalishlar bilan boyib borgan va zamonaviy jamiyat shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Xulosa

Bugungi kunda haqiqatni izlash faqat falsafagagina taalluqli, degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Faylasuf bo'lmasdan ham fizika, tibbiyot, badiiy ijodda yoki kundalik hayotda bilim va haqiqatga intilish mumkin. Biroq haqiqatni ongli izlash aynan falsafadan boshlangan [4]. Falsafa inson tafakkurining eng fundamental va chuqur sohalaridan biri bo'lib, u mavjudlik, bilim, haqiqat, axloq va jamiyat kabi asosiy tushunchalarni o'rganadi. Uning asosiy vazifasi inson va olam o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntirish, bilim tizimini shakllantirish va jamiyat rivojlanishiga yo'n berishdan iborat. Sharq va G'arb falsafasi bir-biridan farq qiluvchi yo'nalishlarda rivojlangan bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi insoniyatni anglash, haqiqatga yaqinlashish va hayotning mohiyatini tushuntirishdir. G'arb falsafasi analitik tafakkur, ilmiy metod va mantiqiy izchillikka asoslangan bo'lsa, Sharq falsafasi insonning ichki dunyosi, axloqiy kamolot va tabiat bilan uyg'unlikni ustuvor qadriyat sifatida ilgari suradi. Bugungi kunda falsafa nafaqat nazariy bilim sohasi, balki hayotiy yo'nalish, jamiyatni tushunish va insonning axloqiy qadriyatlarini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Texnologiyalar rivojlanishi va globallashuv jarayonida falsafaning roli yanada ortib, insoniyat oldida yangi axloqiy va intellektual muammolarni yechishda muhim manba bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, falsafa har doim insoniyat tafakkurining ajralmas qismi bo'lib kelgan va kelajakda ham inson hayotining yo'nalishini belgilovchi asosiy bilim



sohalaridan biri bo‘lib qoladi. Uning doimiy rivojlanishi esa jamiyatning intellektual va axloqiy kamolotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. SHARQ VA G‘ARB FALSAFASI (o‘quv qo‘llanma) Toshkent– 2005
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sharq_falsafasi
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/G‘arb_falsafasi
4. FALSAFA. O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOT TOSHKENT - 2006